



UDK:159.922.6:316.77

Shamsiya BEKOVA,
PhD, dotsent, Qarshi davlat universiteti
E-mail: shamsiyadjabbarovna@gmail.com

QarshiDu professori L.Beknazarova taqrizi asosida

OTA-ONA VA FARZANDLAR O‘RTASIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Inson hayotida muloqotning ahamiyati beqiyosdir. Har bir shaxs o‘zini jamiyat a‘zosi sifatida anglash jarayonida, ijtimoiy tajriba orttirishda, shaxsiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tishda muloqot, o‘zaro aloqalar, ijtimoiy hamkorlik va ta‘sirchan xatti-harakatlar orqali hayotiy qadriyatlarini, hissiyot va intilishlarini namoyon etadi. Insoniyat tarixida muloqot, uning turlari va mazmuni, shakli va vositalari tanqidiy ahamiyat kasb etadi. Muloqot orqali avlod-avlodlar tajribasi, an‘ana va qadriyatlar, bilim va dunyoqarash, intilish va insoniy hislar mustahkamlanadi. Ayniqsa, shaxs taraqqiyotida, uning jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishi, o‘zi va boshqalar orasida ijtimoiy moslashishi uchun kommunikativ kompetentlik zarur sifat sanaladi.

Kalit so‘zlar: Ota-ona, farzand, kommunikativ kompetentlik, muloqot, psixologik rivojlanish, oila, ijtimoiy muhit, emotsional barqarorlik, shaxs tarbiyasi, o‘zaro ishonch.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ

Аннотация

Значение коммуникации в жизни человека несравнимо. В процессе самопознания как члена общества, приобретения социального опыта и прохождения этапов личностного развития каждый человек выражает свои жизненные ценности, чувства и стремления посредством общения, взаимодействия, социального сотрудничества и эффективных действий. Коммуникация, её виды и содержание, формы и средства имели важнейшее значение в истории человечества. Благодаря коммуникации укрепляется опыт поколений, традиции и ценности, знания и мировоззрение, стремления и человеческие чувства. Коммуникативная компетентность считается необходимым качеством, особенно для развития личности, для её успеха в обществе и для социальной адаптации между собой и окружающими.

Ключевые слова: Родители, ребёнок, коммуникативная компетентность, общение, психологическое развитие, семья, социальная среда, эмоциональная стабильность, развитие личности, взаимное доверие.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE BETWEEN PARENTS AND CHILDREN

Annotation

The importance of communication in human life is incomparable. In the process of understanding oneself as a member of society, gaining social experience, and going through stages of personal development, each person expresses his life values, feelings, and aspirations through communication, interactions, social cooperation, and effective actions. Communication, its types and content, forms, and means have been of critical importance in the history of mankind. Through communication, the experience of generations, traditions, and values, knowledge, and worldview, aspirations, and human feelings are strengthened. Communicative competence is considered a necessary quality, especially in the development of a person, for his success in society, and for his social adaptation among himself and others.

Key words: Parents, child, communicative competence, communication, psychological development, family, social environment, emotional stability, personality development, mutual trust.

Kirish. Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi kommunikativ kompetentlik rivojlanishining psixologik jihatlari – zamonaviy jamiyatda oila mustahkamligi, shaxs kamoloti va ijtimoiy barkamollikning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Inson hayotining eng ilk bosqichi bo‘lgan oila muhiti bolaning shaxs sifatida shakllanishida, uning axloqiy, emotsional va ijtimoiy jihatdan yetuk inson bo‘lib voyaga yetishida birlamchi va beqiyos ta‘sir kuchiga ega. Aynan oilada bola o‘zining ilk ijtimoiy rollarini, muloqot madaniyatini va insoniy qadriyatlarni o‘rganadi, atrof-dagilar bilan axloqiy-psixologik munosabatlarni anglaydi hamda mustaqil faoliyat olib borishga intiladi. Zamonaviy oilalarda ota-ona va farzandlar o‘rtasida sog‘lom, ochiq va samimiy muloqotni shakllantirish, o‘zaro ishonchli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish,

emotsional va psixologik yaqinlikni his etish ruhiy salomatlik mustahkamligi uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ kompetentlik – bu insonning turli vaziyatlarda fikrini ochiq, ravon va to‘g‘ri tarzda ifoda eta bilishi, boshqalarning so‘z va his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglash, o‘zini tuta bilish, hamdardlik ko‘rsata olish, hamkorlik va o‘zaro hamfikrlik olamiga kirish qobiliyatidir. Oilada kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish avvalo ota-onaning shaxsiy namunasiga, ular tomonidan bolalarga ko‘rsatiladigan mehr, e‘tibor va muloqot madaniyatiga chambarchas bog‘liq. Ota-onaning har kuni farzandlariga beradigan mehr-muhabbati, hurmat va ishonchi, ularni tinglashga va tushunishga bo‘lgan intilishi bolalarning hamda o‘sib kelayotgan yangi avlodning kommunikatsion qobiliyatlarini samarali rivojlantirishi uchun

asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, jamiyat hayotining jadallik bilan o'zgarib borayotgan zamonaviy bosqichida axborot texnologiyalari, ommaviy kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi, turli madaniy ta'sirlarning kuchayishi ota-ona va farzandlar o'rtasida sog'lom kommunikatsiya muhitini yaratishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Oilaviy muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolar, tushunmovchiliklar, bir-birini tinglash va tushunish madaniyatining sustligi ba'zan turli ziddiyat va kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ota-onalarning psixologik savodxonligi, kommunikativ kompetentlik meyor va tamoyillarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandlar o'z tabiatiga ko'ra yetuk va mukammal shaxs bo'lib yetishish uchun oilada doimo samimiylilik, ochiqlik, o'zaro hurmat va ishonch muhiti bo'lishi lozim. Ota-onalar bolaning his-tuyg'ulariga e'tibor qaratishi, uni faol tinglashi, fikrini tushunishi, muammolari va tashvishlariga befarq bo'lmasligi ularning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, bolaning ham o'z fikrini erkin va to'g'ri bayon eta olishi, ota-onasiga ochiq munosabatda bo'lishi, orzu-istaklari va kechinmalarini bemalol ifoda qilishi oilada ijobiy psixologik muhit barpo bo'lishiga yordam beradi. Jamiyatning muqim va sog'lom rivojlanishi uchun oiladagi har bir a'zo o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, o'zaro hurmat va ishonch tamoyillari asosida muloqot olib boradigan, psixologik jihatdan sog'lom munosabatlarga ega bo'lishi juda muhim sanaladi. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi kommunikativ kompetentlik rivojlanishining psixologik jihatlarni chuqur o'rganish va zamonaviy talablar asosida takomillashtirish oilaning mustahkamligi, shaxsning barkamolligi va kelajak avlodning yetuk inson bo'lib voyaga yetishida asosiy poydevor bo'la oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, uning shaxs shakllanishiga ta'siri masalasi qadim davrlardan buyon dolzarb ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib keladi. Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida insonning ijtimoiylashuvi, uning shaxs sifatida kamol topishi va ijtimoiy normalar, qadriyatlar, axloqiy meyorlarni o'zlashtirishi uchun bosh omil sanaladi. Har bir inson uchun oila nafaqat biologik taraqqiyot, balki emotsional va psixologik taraqqiyot, axloqiy va kommunikativ kompetentlik, individual va ijtimoiy xususiyatlarni shakllantirish manbai hamdir. Ayniqsa, oiladagi o'zaro munosabatlar, ya'ni shaxslararo aloqalar, kommunikatsiya shakllari, bir-biriga bo'lgan mehr, hurmat va ishonch muhitida bolada shaxsga xos sifatning paydo bo'lishi, mustahkamlanishi va rivojlanishi bevosita bog'liqdir. Oila muammolari, oiladagi kommunikativ jarayonlar, shaxslarning genetik va orttirilgan psixologik xususiyatlari, ijtimoiy rol va mavqei g'arbiy va sharqiy psixologiyalarda ham markaziy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy mutaxassislar, xususan, R.Brazington, T.Dumitrashku, F.Galton, U.Toumen, R.Richardson, R.Zayons, G.Xomentauskas kabi olimlarning ilmiy izlanishlari oiladagi shaxslararo munosabatlarning bola psixologiyasi va tarbiyasiga chuqur ta'sirini ko'rsatadi. Ular o'z asarlarida oila mikro-muhitining har bir a'zoga ko'rsatadigan psixologik, emotsional, axloqiy va ijtimoiy ta'sirini chuqur tahlil qiladilar. Masalan, R.Brazington oilaviy muhitni shaxsning jamiyatdagi ijtimoiylashuviga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida ko'radi. T.Dumitrashku bola psixikasining shakllanishida oilaviy munosabatlarning rolini yuqori baholaydi, tashkil etilgan oilaviy kommunikatsiyada ochiqlik, ishonch va mehr muhitengina shaxsda yetuk fazilatlar kamol topishini ta'kidlaydi. F.Galton esa shaxsning genetik xususiyatlari va orttirilgan tajribasining uyg'unlashuvi aynan oilada namoyon bo'lishini asoslab beradi. U.Toumen, R.Richardson, R.Zayons,

G.Xomentauskas kabi olimlar oiladagi psixologik farovonlik, emotsional muvozanat, bola va ota-ona o'rtasida o'zaro ishonchli va madaniyatli munosabatning shaxs hayotidagi ahamiyati haqidagi ilmiy xulosalarini bayon qilganlar [1].

Shuningdek, sobiq ittifoq va mustaqil davlatlar psixologiya maktablarida ham oilaning jamiyat va shaxs taraqqiyotidagi o'rni, shaxslararo munosabatlarning roli doimo chuqur o'rganib kelinmoqda. Jumladan, V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.G.Volkov, S.V.Kovalev, V.P.Levkovich, E.I.Pavlovich, V.L.Titarenko va boshqalar shaxsning oiladagi formativ omillarini, genetik va orttirilgan xususiyatlarni, shuningdek, oilada yuzaga keladigan ziddiyat, nizolar, rollararo farqlar, oila doirasidagi kommunikatsion va axloqiy ko'nikmalarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilganlar. V.V.Boyko oilani emotsional xavfsizlik hududi sifatida tahlil qilgan holda, oilaning har bir a'zosiga ijtimoiy-psixologik yordam, ruhiy qulaylik va emotsional tayanch berishini asoslaydi. G.M.Breslav va S.V.Kovalevlar oiladagi ijtimoiy rollar taqsimoti, psixologik moslashuv mexanizmlari, shaxslararo munosabatlardagi sotsiometrik o'rinni aniqlash haqida qimmatli ilmiy taktika va metodikalar ishlab chiqqanlar [2].

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ana shu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlar yanada kuchayib, zamonaviy qarashlar bilan boyitildi. Mamlakatimizda ham oila, undagi shaxslararo munosabatlar, shaxs va jamiyat, axloqiy va madaniy o'zgarishlar, ijtimoiy-psixologik xavfsizlik, avlodlar uzviyiligi kabi muammolar nufuzli olimlar tomonidan atroflicha o'rganilmoqda. F.Akramova, D.Abdullayeva, V.Karimova, A.Kadirova, Z.Nishonova, G.Niyozmetova, M.Salayeva, N.Sog'inov, R.Samarov, Z.Rasulova, M.Utepbegonov, G'.Shoumarov kabi olimlarimiz oilaning ijtimoiy va psixologik mustahkamligi, shaxsning oila muhitida shakllanishi, o'zaro aloqalar va muloqotning ahamiyati, kommunikativ kompetentlik, axloqiy ong rivoji, oilaning barqarorlik va farovonlik uchun axborot va resurs manbai ekanligini turli nuqtai nazardan tadqiq qilmoqdalar. Mazkur olimlarning izlanishlari bugungi jamiyatda oila va undagi shaxslararo munosabatlarning, shuningdek, milliy mentalitet va diniy qadriyatlarining bola psixikasiga, uning dunyoqarashiga, madaniy, ma'naviy va emotsional barkamolligiga ta'sirini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Kommunikativ kompetentlik – bu inson o'z fikrini to'g'ri va aniq ifoda eta olishi, atrofdegilar bilan ijtimoiy-psixologik muvozanatda bo'lib, o'zaro hamkorlikda o'z maqsadlari sari intilishi, ijtimoiy vaziyatlarning o'ziga xos xususiyatini anglab yetishi va ularga mos harakat qilish qobiliyati. Mazkur kompetentlikning rivojlanishida asosiy omillardan biri, shubhasiz, oilaviy muhit, ya'ni ota-ona va farzandlar o'rtasidagi aloqalardir. Bola hayotining dastlabki bosqichlarida eng muhim kommunikatsiya manbai oiladir. Shu sababli, ota-onaning bolaga nisbatan tutumi, muloqot uslubi va ijtimoiy-psixologik yondashuvi bola shaxsidagi kommunikativ kompetentlikning rivojlanishi uchun asosiy poydevor bo'ladi. Oilaviy aloqalarda muloqot ikki tarafning bir-birini tushunishi va his eta olishi, yaqinlik va ishonch asosida barpo bo'ladi. Ota-onaning farzand tarbiyasidagi yondashuvi, tarbiya shakli va muloqot vositalari bolaning shaxs sifatida kamol topishida, ong va nutq dastlabki asoslarining rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega. Muloqot jarayonida bola nafaqat so'zlash, balki his-tuyg'ularini, umid va orzularini, orzu-intilishlarini ifoda qilishni va boshqalarning hissiyotlariga mos ehtiyoqkorlikni o'rganadi. Bu esa shaxsning ijtimoiy-psixologik muvozanatini ta'minlash jihatidan dolzarbdir [4].

Kommunikativ kompetentlikning taraqqiyot bosqichiga ijtimoiy-psixologik omillar samarali ta'sir

ko'rsatadi. Bola dastlabki yillarda oilada turli muloqot shakllarida ishtirok etadi, hajmini kengaytiradi, har bir yangi munosabat — yangi tajribadir. Farzandga mehr-muhabbat, e'tibor, oqilona sabr va to'g'ri yondashuv, uning mustaqil qaror bera oladigan, ijtimoiy holatga moslashadigan shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Oila muhitida hurmat, ishonch va samimiyat hukm suradigan bo'lsa, bola jamiyatda o'zini mustaqil va bilimdon inson sifatida namoyon etadi. Psixologlar tomonidan aniqlanishicha, kommunikativ kompetentlik shaxsning bolalik davrida asos solinadi. Dastlabki bosqichda bola faqat o'zining ehtiyojlari va his-tuyg'ularini ifoda etishni, oiladagilar bilan oddiy so'zlashishni o'rganadi. Keyinchalik, nutq, mimika, harakat va boshqa nonverbal kommunikatsiya vositalaridan foydalanishgacha kengayadi. Bu jarayonda ota-onaning qanchalik e'tiborli, bag'rikeng, ochiq va samimiy bo'la olishlari bola uchun markaziy omil sifatida maydonga chiqadi. Agar oilada ota-onaning farzandga nisbatan muloqoti norasmiy, ochiq va samimiy bo'lsa, bola o'zini erkin his qiladi, mustaqil fikrlaydi, o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglaydi [5].

Tahlil va natijalar. Ota-onaning kommunikativ kompetentligi asosi — ularning emotsional barqarorligi, sabr-toqati va sevgisida namoyon bo'ladi. Ota-ona bola bilan bir xil nuqtayi nazardan qarab muloqot qilsa, uning fikr-mulohazalarini hurmat qilsa, bolada o'z-o'ziga ishonch shakllanadi, ijtimoiy-psixologik muammolarni osonlik bilan engishga qodir bo'ladi. Oila muhitida ochiqlik va o'zaro ishonch hukm surib turadigan bo'lsa, bolaning nutqi, mulohazalarining paydo bo'lishi va mustahkamlanishi, emotsional o'sishi tezlashadi. Ota-onaning bolalarga munosabatidagi psixologik yondashuv, farzandning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni kichik yoshligidan boshlab unga mustaqillikka yo'l ochib berish, har bir harakatini qadrlash

bolaning ong-mantiqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Farzand chin dildan o'z his-tuyg'ularini ifoda eta oladigan va uning harakatlari yuqori baholangan muhitda ulg'aysa, u jamiyatda yetuk, mustaqil va bag'rikeng inson sifatida kamol topadi. Kommunikativ kompetentlikning rivojlanishida bolaga mas'uliyat, hamkorlik, o'z fikrini aniq va to'liq ifoda eta olish ko'nikmalari ota-ona tomonidan bosqichma-bosqich berilib borilishi muhim. Bu jarayonda ota-onaning pedagogik madaniyati, nutq madaniyati, didaktik mahorati, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, jamiyatning axloqiy normalariga sodiqligi asosiy rol ni bajaradi. Bolaning har bir tashabbusini qadrlash, uni rag'batlantirish va foydali maslahatlar bilan qo'llab-quvvatlash bolaning shaxsiy rivoji uchun qulay psixologik muhit yaratadi [6].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilganda, ota-ona va farzandlar o'rtasida kommunikativ kompetentlik rivojlani-shining psixologik jihatlari bolaning shaxs sifatida yetuklashuvida, ijtimoiy moslashuvida, jamiyat a'zosi sifatida mukammal shakllanishida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Oila muhitidagi ijobiy emotsional munosabatlar, ochiqlik va ishonch asosida barpo etilgan hamkorlik, farzandlarda ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Ota-onaning har bir harakati, muloqot jarayonidagi hurmat, sabr, bag'rikenglik, bola uchun nafaqat ko'nikma, balki o'zini anglash, baxt va psixologik baraka manbai bo'lib xizmat qiladi. Oilada kommunikativ kompetentlik rivojlangani sari, shaxs jamiyatga, zamonga moslashadi, o'z orzulariga intiladi, mustaqil, barkamol inson sifatida hayotga qadam qo'yadi. Shu sabab, ilmiy va amaliy jihatdan ota-onalar, pedagoglar va psixologlar tomonidan oilada kommunikativ kompetentlikni shakllantirish, mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha doimiy ish olib borilishi muhim vazifa sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. — T.: 2014. — 185 b.
2. Baumrind, D. (1991). The influence of parenting style on adolescent competence and substance use. *Journal of Early Adolescence*, 11(1), 56–95. <https://doi.org/10.1177/02724316911111004>.
3. Bronfenbrenner, U. (1979). *The ecology of human development: Experiments by nature and design*. Harvard University Press.
4. G'oziyev E.F. *Yosh va pedagogik psixologiya*. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. — T.: 2022. — 5 b.
6. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. — T.: 2007. — 24 b.
7. Karimova V.M. Oila muhitining shaxs rivojiga ta'siri. *Pedagogik ta'lim*, 2020, №4, 45–50.
8. Rasulova F.F. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari: Avtoref. diss. ps. fan (PhD): 19.00.06 — T.: 2018. — 48 b.
9. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. — T.: 2005. — 15 b.
10. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dissertatsiya, psixol. fan. nomzodi: 19.00.05. — T.: 2004. — 166 b.